

**ERNEST SETON-TOMPSONNING “YOVVOYI YO’RG’A” HIKOYASINING
DIDAKTIK AHAMIYATI**

X. Sh. Shirinboyeva

SamDChTI, Ingliz tili I fakulteti talabasi
khusniyashirinboeva@gmail.com

D. B. Buronova

Ilmiy maslahatchi, SamDChTI o’qituvchisi
Dilnozabb@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada taniqli ingliz yozuvchisi Ernest Seton-Tompson qalamiga mansub bo’lgan eng mashhur hikoyalardan biri “Yovvoyi yo’rg’a” asari haqida so’z yuritiladi [2]. Shu bilan birgalikda, bu asarning o’quvchilar uchun didaktik ahamiyati va bu asarni o’qish orqali kitobxon oladigan ma’naviy bilimlar ham keltirib o’tiladi.

Kalit so’zlar: animalism, insonparvarlik, hayvonot dunyosini saqlash, yovvoyi ot, ozodlik uchun kurash.

Tabiat omon ekan, Seton-Tompson asarlariyam omondir [1].

Barchamiz uchun sevimli bo’lgan kanadalik yozuvchi Ernest Seton-Tompsonning deyarli barcha asarlari kitobxonlar orasida ma’lum va mashhurdir. Ayniqsa, asosiy obraz sifatida jonivorlar tasvirlangan roman, hikoyalari adibning ijod faoliyatida muhim rol o’ynaydi. Bunday turdagи asarlari butun dunyo miqyosida nafaqat kichik yoshdagi bolalarning, balki yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo’lgan barcha kitobxonlarning ko’nglidan joy olishga ulgurgan [3]. Tompson asarlarini o’qir ekanmiz, tabiatga va hayvonot olamiga nisbatan mehr-muruvvat tuyg’usi beixtiyor qalbimizni egallab oladi.

Adibning nomini dunyoga tanitgan asarlaridan biri bo’lmish “Yovvoyi yo’rg’a” hikoyadagi asosiy voqeа sifati ko’pgina podachilar uchun anchayin muammoga sabab bo’layotgan, ya’ni, ularning yuvosh fe’lli baytallarini yo’ldan

urayotgan yovvoyi ot haqida hikoya qilinadi [4]. Bir qarashda asarda shunchaki bir otdan qasos olish uchun yo’lga chiqqan bir guruh insonlar haqida so’z yuritilgandek ko’rinishi mumkin, lekin asarni diqqat bilan mutolaa qilgan kitobxon yozuvchining asl maqsadini anglay oladi. Bu asar orqali adib insonlarga xos bo’lgan ikki qarama-qarshi hissiyot- hayvonot olamiga nisbatan mehr tuyg’usi va yana boshqa bir qahramon orqali mutlaqo boshqa hisni ko’rishimiz mumkin. Misol sifatida aytadigan bo’lsak, yo’rg’ani o’ldirishni qasd qilgan qahramon Foster: “Menga

qarang, bordi-yu, u la'nat yo'rg'aga duch kelib qolsangiz, ayamay otib tashlang", - degan tajavuzkor ohangda aytgan gapi orqali biz bu insonda hayvonlarga nisbatan mehrning yo'q ekanini bilishimiz mumkin [5]. Yana boshqa biz qahramonimiz esa avvaliga yovvoyi yo'rg'aga nisbatan qalbida qahr tuyg'usi bo'lga-bo'lsa-da, ammo yo'rg'ani ko'riboq, qalbidagi g'azab tuyg'usi o'rnini u jonivorga nisbatan mehr egallab oladi va o'sha zahotiyoy qurilishi. "Ko'zimga yo'rg'a otlarning oti, dashtlarda chopib yurgan jamiki otlarning sarasi bo'lib ko'rindi, shunday noyob jonivorni bir to'da masalliqqa aylantirishga ko'nglim bormadi..." [5]. Qahramonimizning bu gaplariga e'tibor bersak, yuqoridagi Foster ismli qahramonimizga nisbatab mutlaqo boshqa fiklar... Bu yo'rg'a uchun Montgomer ismli qari kishi naq ming dollar va'da qilgan edi, o'zining manfaatini o'yagan holda otni tutib bersa ham bo'lar edi, ammo undagi hayvonlarga nisbatan mehri va vijdoni yo'l qo'ymadidi, sheri Jo qanchalar uni otishga majbur qilmasin atay osmonga qarab o'q uzdi. Aynan mana shu sahna orqali ham ijodkorning buyuk iste'dodiga guvoh bo'lishimiz mumkin [6]. Bu jarayonda ikki tanlov, ya'ni o'z nafsi o'ylab mukofot uchun otni tutish yoki bo'lmasa insoniylik jihatidan "bunday san'at asari darajasidek "go'zal jonzotni o'ldirmaslik. Bu tanlovda vijdon ustun keldi. "Yo'q, qandaydir bir baytalmi deb shunday yo'rg'aning yaltiroq terisiga dog' tushirigm kelmadidi"¹. Mana haqiqiy insoniyligi kuchli bo'lga-bo'lsa-da, ammo bunga qo'li bormadi, bu ham ulug' qadriyatdir.

Asar tahlili borasida biz yana bir jihatni alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim. Bu ham bo'lsa, yo'rg'adagi yashash uchun umid, hayotga bo'lga-bo'lsa-da muhabbatdir [7]. U o'zining so'nggi nafasigacha ozodlik uchun kurashdi, kimgadir bo'ysunishdan ko'ra o'limni afzal bildi, to umrining oxiriga qadar faqat mustaqil bo'lishga, hech kimga bo'yin egmaslikka harakat qilib yashadi va buni uddaladi ham. "Yovvoyi yo'rg'a yana, yana yuqoriladi, ana tik qoyaga ko'tarildi. Qoyadan pastga-havoga sakradi, ikki yuz futcha uchib yurdi, yana, yana pastlab...toshga borib tushdi [9]. U jonsiz sulayib qoldi, ammo...ozod bo'lib qoldi!"². Hikoya aynan mana shunday jumlalar bilan yakunlanadi. Ko'ryapmizki, agarda yo'rg'a uni tutishga harakat qilayotgan obraz-qariya Tomga bo'ysunganda edi, tirik qolishi mumkin edi, biroq tutqun holatda tirik yashagandan ko'ra qurban bo'lishlikni ma'qul ko'rdi. Ongsiz jonzot bo'lga-bo'lsa-da otdagi bu jihatni yozuvchi nihoyatda katta iste'dod bilan ochib beradi [10]. Quyidagi parchaga e'tibor bersak. "Yovvoyi yo'rg'a qolgan bor kuchini yig'ib ozodlik yo'lida jon-jahdi bilan yonbag'ir bo'ylab yuqoriga talpindi. Yana, yana yuqoriladi, badaniga botayotgan arqonga ham, uni to'xtatib, iziga qaytarish uchun uzilgan o'q ovoziga ham parvo

¹ Darslik, 7-sinf adabiyoti 2017. 349-bet² Darslik, 7-sinf adabiyoti 363-bet

qilmadi, u ozodlikka talpindi...”. Naqadar go’zal jumlalar. Albatta, o’qiyotgan kitobxonning qalbini larzaga soladi...

Xulosa o’rnida aytadigan bo’lsak, bu hikoyani o’qir ekanmiz, juda ko’plab oliv qadriyatlardan hisoblanmissiz tuyg’ular ahamiyatiga guvoh bo’lishimiz mumkin. Aslini olganda u darajada katta hajmli bo’lmasa-da, olam-olam ma’nolarni o’zida jamlay olgan hikoya sifatida bemalol aya olamiz. Turli xil insonlar taqdiri, ularning fe'l-atvorini o’rganib, tahlil qilish jarayonida ham o’quvchi, ayniqsa endigina shaxs sifatida shakllanib borayotgan 14- 15yoshlardagi o’smir ruhiyatiga anchagini ijobjiy ta’sir ko’rsatishi shubhasiz. Shu sababli ham bu qissadan olingan parcha umumiy o’rta ta’lim maktablarining aynan 7-sinf o’quvchilari uchun darslikda keltirilgan. Buni o’qir ekan, albatta o’quvchi birgina hikoyamiz asosiy qahramoni yovvoyi yo’rg’a timsolida butun tabiatga, jonzotlarga nisbatan qalbida mehr tuyg’usini shakllantira oladi.

Foydalanimizga yordam beruvchilar ro’yxati:

1. Q. Yo’ldoshev, B. Qosimov, V. Qodirov, J.Yo’ldoshbekov – umumta’lim maktablari 7-sinf uchun darsligi, 2017.-C. 345-363.
2. “Jonivorlar haqida hikoyalar”- Ruschadan T.Murod tarjimasi. T- G’.G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1989. 432bet
3. Kholbaeva D.D., Tasheva D.S. Pedagogical techniques and methods of forming interest in the lessons of the Russian language. Web of scientist: international scientific research journal, ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 3, Mar., 2022. -p.238
4. Kholbaeva, D., & Tasheva, D. (2022). Theoretical And Practical Aspects Of Monitoring The Acquisition Of Knowledge, Skills And Abilities By Students In The Russian Language In Universities. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(11), 115-118.
5. GR Bozorova, Effective ways to teach the life and creativity of Muhammad Yusuf in school literature education. Международный журнал языка, образования, перевода 3 (2). 2022.
6. Khaydarovna, Ullieva Sanobar, Umarova Dilfuz Mamatkulovna, and Allayarova Dilfuz Klichevna. "Artistic Character As A Personality Model: Methods Of Linguistic Representation Of The Human Image." The Seybold Report (2023).
7. Ullieva, S.. (2022). HISTORICAL AND COMPARATIVE CHARACTERISTICS OF ZOONYMS IN THE UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES. Евразийский журнал академических исследований, 2(6), 520–523. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/2247>

-
8. Khaydarovna, Ullieva Sanobar. "Specific Aspects of Linguistic Study of Literary Characters." Zien Journal of Social Sciences and Humanities 16 (2023): 38-40.
 9. Tasheva Dilorom, Djanzakova Matluba. The role of literary text in teaching the Russian language. International Multidisciplinary Conference. Manchester, England. 25th December 2023. -p.19. <https://conferencea.org>
 10. Tasheva, D. (2022). Methods Of Using Didactic Materials To Enhance Activities In The Russian Language Lessons. Ta'lim Va Rivojlanish Tahlili Onlayn Ilmiy Jurnali, 2(1), 325-328.
 11. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekcha_Vikipediya
 12. <https://www.ziyouz.com/>
 13. <https://asaxiy.uz/>